

IBN SINONING TIBBIYOT SOHASIGA QO'SHGAN BEQIYOS HISSASI

*Sa'dullayeva Shamsiyabonu Muxiddin qizi**Ilmiy rahbar: Shonazarova Nodira Xudoyberdiyevna**Samarqand Davlat tibbiyot universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sinoning hayot yo'llari va sharq tibbiyoti ilm faniga qo'shgan beqiyos hissasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Abu Ali Ibn Sino, tibbiyot, Buxoro, Tib qonunlari, Balx, mutafakkir, Avitsenna.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirardan biri Abu Ali ibn Sino bo'lib, u Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir.

Abu Ali Ibn Sino to'liq ismi Abu Ali ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali bo'lib, u 980-yilda 21-avgustda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida tug'ilgan. Ibn Sinonig otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar hukmdori Nuh Ibn Mansur (976-997) davrida Buxoroga ko'chib kelgan. Bu yerda Afshonalik Sitora qizga uylanib, undan ikkita farzand ko'rgan. 1 Bundan ko'rinish turibdiki Ibn Sino oilada yakka farzand bo'lman uning Mahmud ismli ukasi bo'lgan. Husayn (Ibn Sino) besh yoshidan boshlab ilmiga mehr qo'yadi. Dastlabki bilimlarni qur'oni karimni yod olishdan boshlaydi. To'qqiz yoshida qur'oni karimni yod olib, o'n yoshida qorilik dajasiga yetadi. Undan so'ng esa matematika ilmiga mehr qo'yadi va uni qunt bilan o'rghanadi. Shu bilan birgalikda arab adabiyotiga bo'lgan qiziqish tufayli ko'plab arab adabiyotlarini o'qigan va ularni bemalol tarjima qila olgan.

U o'zidan avval o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, 106 falsafiy merosini, xususan Aristotel, Evklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriyarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16–17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi. 999 yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabit etilgach, Somoniylar hokimiyyati inqirozga uchradi. 1000-yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u erda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, ibn Miskavayh, Abu Sahl Masihiy, Abulkayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo'ldi. Abivard, Tus, Nishapur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan ibn Sino hokim Qobus ibn Vashmgir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo'lajak shogirdi Juzjoniy bilan tanishdi. 1019–21 yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qilarkan, hokim bilan kelisha olmay, 4 oy qamoqda yotib chiqdi. 1023 yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag'ishladi. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof» kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari, «Hayy ibn Yaqzon» falsafiy qissasi so'nggi yillarda yozilgan. U Isfahonda rasadxona qurish bilan mashg'ul bo'ldi.

Umrining so‘nggi yillarida feodal urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o‘zi ham faol qat-nashganligi tufayli u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonliqda yurib, 1037 yil 18 iyunda Isfahon shahrida 57 yoshida qulunj kasalligidan vafot etdi.

Ibn Sinoning buyuk tabib bo‘lib yetishida uning ota-onasi va ustozlarining mehnatlari juda katta bo‘lgan. Xususan Ibn Sinoning ilk ustozi hisoblangan Abu Abdulloh Notiliydan mantiq, muhandislik va astronomiya ilmlarini qunt bilan o‘rgangan.² Abu Abdulloh Notiliy shogirdi hisoblanmish Ibn Sinoning qobiliyatiga yuqori baho berib, uni yana ko‘proq va chuqurroq ilm olishga undagan. Ibn Sino tinmay mutolaa qilar va o‘zi uchun qiziq bo‘lgan musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o‘rganadi. Bu ilmlarning foydasi ila qalbida tabobat ilmiga bo‘lgan muhabbat asta-sekinlik bilan ildiz ota boshlaydi. Ibn Sino tib ilmiga bo‘lgan chuqur mehri ila o‘z davrining yetakchi tabiblaridan biri bo‘lgan Buxorolik tabib Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qumriydan tabobat sir-asrorlarini o‘rgana boshlaydi. Allomaning o‘zi shunday deydi: „Keyinchalik tib ilmi bilan shug‘ullangim kelib qoldi.Unga oid kitoblarni o‘qishga kirishdim.Tib ilmi o‘zi qiyin ilmlardan emas edi.Shu sababli qisqa muddat ichida bu sohada shunday natijalarga erishdimki, hatto fozil tabiblar ham huzurimga kelib, mendan tib ilmini o‘rganadigan bo‘ldi”. Ibn Sino yoshligidan juda tirishqoq va ilmga chanqoq bo‘lib, allomaning o‘zi yozib qoldirishicha: „O’sha kezлari biron kecha (ya’ni ilm bilan hamnafas bo‘lgan damlari) to‘yib uxlamas edim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsalar bilan shug‘ullanmas edim. Har bir masalani o‘rganayotganimda bir qancha qiyosiy faktlarni solishtirib, shu faktlar nuqtayi nazaridan o‘sha dastlabki masala yuzasidan xulosa chiqarar edim. Nihoyat uning asl mohiyati menga ayon bo‘lib qolardi. Ana shu zaylda hamma bilimlarni mustahkam egallab oldim. Bir insonning imkoniyati darajasida ularni o‘zlashtirdim” deya ma’lumotlar bergen³. Bundan ko‘rinib turibdiki Ibn Sino masalaning mohiyatini tez tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lib, eng asosiysini ikkinchi darajasidan ajrata oladigan kuchli ilm egasi bo‘lgan.

Jahon miqyosidagi umumbashariy muammolardan biri bo‘lgan salomatlik hamda inson kamoloti bugugi kunda har kundagiga qaraganda yanada muhimroq, yanada ahamiyatli umumbashariy muammolar orasidagi birinchi hamda eng muhim muammo ekanligi hech kimga sir emas. Dunyo ahli aholisini qamrab olgan koronavirusning dahshatli oqibatlarini har bir inson o‘z ko‘zлari bilan ko‘rdi. Haqiqatdan ham jamiyat uchun tinchlik va sog‘liqdan muhimroq narsa bo‘lmas ekan. “...tinchlik va sog‘liq –bu har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan buyuk ne’matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz.”Sog‘lom inson o‘z mamlakati uchun ezgu ishlarga qodir. Buxorolik alloma Ibn Sino o‘zining qisqa, ammo g‘oyatda mahsulli umrida oltmishta yaqin tibbiyotga oid asar yozdi. Alloma o‘z hayotini butun insoniyatni sog‘lig‘ini muhofaza qilishga bag‘ishladi, desak, aslo mubolag‘aqilmagan bo‘lamiz. “Sog‘liqni saqlash ilmi”, ”Sog‘lom turmush tarzi”, ”Sog‘lom avlod”, ”Ruhiy salomatlik” , ”Sog‘lom tabiiy muhit” konsepsiyalarini Ibn Sinoning tib asarlaridir desak, adolatli bo‘ladi.Zamonaviy tibbiyot taraqqiyotida buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino ana shunday ulug‘zotlardan biri hisoblanadi.

Jahon ilm-fani rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan bu durdona asarlar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida tibbiyot taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan. Ushbu asarda buyuk olim amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos solgan.

Uning tibbiyotga oid qomusiy asari «Kitob al-qonun fit-tibb» 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri ma’lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi. Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari, bo‘lim va metodlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sog‘liqni saqlash yo‘llari, kishi anatomiyasи haqida mazmundor, aniqligi bilan kishini taajjubda qoldiruvchi qisqacha ocherk, sog‘liqni qanday saqlash kerakligi haqidagi ta’limot (keyinchalik gigiena deb nomlangan) bayon etiladi. «Qonun»ning bu kitobini hozirgi zamon ichki kasalliklar propedevtikasi darsligiga tenglashtirish mumkin. «Qonun»ning oddiy dorilarga bag‘ishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste’mol qilish usullari bayon etilgan. Ibn Sino simob, uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi bo‘lib tavsiya etadi, sharobni quvvatga kirituvchi, jarohatlarni tozalovchi dori sifatida ishlatadi. Uchinchi kitobda ayrim organlar (hatto soch, tirnoqlar)ning kasalliklari, ularni davolash usullari bayon etiladi, uni maxsus patologiya darsligi deb atasaham bo‘ladi. Bu kitobda bosh miya, nerv, ko‘z, quloq, burun, tomoq, qorin, tish, yurak, jigar, buyrak kasalliklari batafsil tahlil qilinadi. «Qonun»ning to‘rtinchi kitobi organizmning umumiy kasalliklariga bag‘ishlangan. Unda isitmalar, o‘smlar, ularning sababi, xirurgik kasalliklar (suyak sinishi, chiqishi, jarohatlanish) va ularni davolash usullari har xil dorillardan zaharlanish va bunda ko‘riladigan choralar to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Chechak, qizamiq, moxov, toun, vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tasvir eti-ladi. «Qonun»ning beshinchi kitobida murakkab dorilarning organizmga ta’siri, ularni tayyorlash, iste’mol qilish usullari bayon qilingan. Bu kitob dorishunoslik ilmiga – farmakologiyaga bag‘ishlangan. Tibbiyotning asosiy vazifasi, uning ta’biricha, «inson sog‘lig‘ini saqlash, agar kasallik paydo bo‘lgan bo‘lsa, bu kasallikni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va ularni yo‘qotish orqali sog‘liqni tiklashdan iborat». Ibn Sino fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyat o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, bir-biriga asoslanmog‘i zarur, aks holda u rivoj topmaydi, o‘z maqsadiga erisha olmaydi. «Tib ilmi avvalo ikki qismga - nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi. Nazariya deb ataluvchi qismi tabiblarning fikrlarini ifoda qilib, maxsus amaliya deb ataladigan qismi tadbir va amalning qanday bo‘lishi kerakligini o‘rgatadi. Tibning amaliy qismi ikkiga bo‘linadi. Birinchi qismi sog‘lom tanlarning tadbirini bilish: bu sog‘liqni saqlashga taalluqli bo‘lgani uchun sog‘liqni saqlash ilmi deb ataladi. Ikkinchi qismi – kasal tananing tadbirini bilish bo‘lib, sog‘lom holatga qaytarish yo‘llarini ko‘rsatadi, bu davolash ilmi deb ataladi». Ibn Sino kasallikni o‘rganishda ob’ektiv sharoitni har tomonlama bilishga katta ahamiyat berdi, muhitdagi turli tabiiy narsalar, havo orqali kasallik tarqatuvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan «mayda hayvonotlar» haqidagi fikrni olg‘a surdi. «Qonun» 800 yil davomidan hakimlar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi. Urta asrlarda «Qonun» Sharqdagina emas, balki G‘arb mamlakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo‘llanma edi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 (ba’zi ma’lumotlarda esa 242 ta) ga yaqin asari yetib kelgan xolos.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki Ibn Sino o'z davrining yetuk olimi, Sharq tabobati ilmining yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan. Ibn Sino birinchilardan bo'lib insonlardagi vabo va o'lat kasalligini farqlab bergan. Insonni davolashda eng muhim omillardan biri hisoblangan to'g'ri tashxis qo'yish kerakligini va kasallikka qarshi kurashishishdan oldin kasallik keltirib chiqaruvchi narsalarga qarshi kurashish zarurligini ilmiy tarzda isbotlab bergan olim hisoblanadi. Uning shoh asari hisoblangan «Kitob al-qonun fit-tibb» asarida 560 ta dorivor o'simliklar haqida ma'lumot berib, uni amaliyotda sinab ko'rsatib bergan. Hozirgi kunda esa shulardan 365 taga yaqin dorivor o'simliklardan zamonaviy tibbiyat sohasida keng foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari Ibn Sino kasalliklarni qo'zg'atuvchi bakteriyalar bu viruslar ekanligini zamonaviy texnologiyalarsiz aniqlagan. YUNESKO tomonidan 1980-yilda buyuk alloma Ibn Sinoni 1000 yilligi keng miqyosda nishonlangani va «Kitob al-qonun fittibb» asarini o'zbek tilida 10 jildlik to'plami nashr etilgani ham Ibn Sinoni nafaqat Osiyoda balki butun dunyoda o'zining o'chmas va yorqin o'rni borligidan dalolat beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Buyuk siymolar, allomalar. K.1.-T.: 1995. 48-53betlar.
2. Abu Ali Ibn Sino. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. B. 16.
3. Qayumov A. Abu Ali ibn Sino. –T., 1987
4. Petrov, V. D. "Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist." Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981.
5. Avicenna and the Visionary Recital (en), 2016-04-19. "In this work a distinguished scholar of Islamic religion examines the mysticism and psychological thought of the great eleventh-century fors (dariy) philosopher and physician Avicenna (Ibn Sina), author of over a hundred works ontheology, logic, medicine, and mathematics."